



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

**QOSIMOVA GAVHAR  
ISLOMOVNA<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Qashqadaryo viloyati XTXQTMOHM Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrası o'qituvchisi

## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA OLAMNING TABIIY FAN JIHATIDAN TASAVVURLARINI SHAKLLANTIRISH**

**Annotatsiya:** Maqolada Boshlang'ich sinf o'quvchilarida olamning tabiiy fan jihatidan shakllanishida real va noreal dunyoning o'ziga xos obrazlarini yaratuvchi ijodiy tasavvur katta ahamiyat kasb etilishi shu bilan uning ongini dunyo haqidagi ma'lumotlar bilan to'ldirishga yoki unga o'zgacha nazar bilan qarashga hamda oldindan payqashga imkon berishligi haqida aytib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** ilmiy, olam, tamoyil, idrok, tushuncha, tabiat, tabiiy, tizimlilik, tasavvur.

**Аннотация:** В статье подчеркивается важность творческого воображения учащихся младших классов в формировании Вселенной с точки зрения естествознания, создания уникальных образов реального и нереального мира, тем самым наполняя его разум информацией о мире или глядя на него иначе. а также возможность раннего обнаружения

**Ключевые слова:** наука, вселенная, принцип, восприятие, понимание, природа, естественно, системно, воображение.

**Resume:** The article emphasizes the importance of the creative imagination of primary school students in the formation of the Universe from the point of view of natural science, the creation of unique images of the real and unreal world, thereby filling his mind with information about the world or looking at it differently. as well as the possibility of early detection.

**Key words:** science, universe, principle, perception, understanding, nature, naturally, systemically, imagination

**Kirish (Introduction).** Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlar, ta'lim tizimi stradejiyasini pedagogic paradigmalarni aforitarlikdan insonparvarlikka hamda yangilanishlar ro'y bermoqda, o'quv muassalarining yangi ko'rinishlari hamda modellari paydo bo'lmoqda, umumiy o'rta maktab ta'limida individuallashuv, tabaqalashuv va integratsiya jarayonlari kuchaymoqda. Boshlang'ich ta'lim davri bolaning tabiiy qobiliyatlarini rivojlantirish, dastlabki dunyoqarash va g'oyalarnii, o'quv faoliyatida turg'un ijobiy motivlarni shakllantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi, chunki mazkur yoshda bola juda sezitiv va ijodiy yondashuvchan bo'ladi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida tabiatni o'rganish dominanta rolini o'ynaydi, tabiat-insonning mavjudligidir; inson – tabiatning qismidir; tabiat-shaxs o'rganishi, bilishi va rivojlanishi kerak bo'lgan sohalardan biridir.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** O'quvchilarda olamning yagona manzarasini shakllantirishning ilgarigi buyuk kontsepsiyalaridan biri – A.Ya. Gerning(1883) tabiatni o'rganish tizimi bo'lib, u o'quvchilarga mustaqil harakat qilishlariga imkoniyat berishni tavsiya etgan va birinchi bor boshlang'ich sinf bitiruvchilarida tabiatshunoslik mazmunining umumiy hajmini belgilab berdi. Pedagog olimlar orasida tizimda tabiatni o'rganishda bolalar rivojlanishini nazariyasi va amaliyotini boyitgan, tabiatga yagona qarashni shakllantirishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlardan B. P

Vaxterov, L.S. Sevruc, D.D.Semenov, I.I.Polyanskiy, K.P.Ygadovskiyy va boshqalarni ishlarini keltirish mumkin. M.N.Skatkin va B.A. Suxomlinskiyning ishlari boshlang'ich sinf o'quvchilarida dunyo manzarasini dunyoqarashli bilim sifatida shakllantirishni hal etishda katta ta'sir ko'rsatdi.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Kichik yoshli o'quvchilar tomonidan atrof olamning tabiiy fan jihatidan qiyofasini shakllantirish jarayonida bolalarda yorqinligi, ravshanligi, to'liqligi bilan ajralib turuvchi adekvat birlamchi tasavvurlarni hamda sxemaga solingan va ancha umumroq bo'lgan umumiy tasavvurlarni shakllantirish ayniqsa muhim. Real ob'ektlar va hodisalar, shuningdek, uni aks ettiruvchi modellar haqidagi tabiatshunoslikka oid tasavvurlar yig'indisi har bir bolaning bilim olish bilan bog'liq eng muhim fondini tashkil etadi. Bu idrok qilishdan abstrakt-mantiqiy fikrlashga o'tish pog'onasi kabi. O'z navbatida kichik yoshli o'quvchilarning tasavvurlari o'zining ko'rgazmali ekani va atrof olamning ichki, yashirin qonuniyatli aloqalari va munosabatlari ajratib olinmagani bilan abstrakt (mavhum) tushunchalardan farq qiladi. Biroq tasavvurlar, ayniqsa, makoniy tasavvurlar bolalar xotirasi, xayoloti, tafakkuriga ularni ixtiyoriy singdirish jarayonida ulkan rol o'ynashinishi tushunish zarur. Olimlarning ta'kidicha, tasavvurlarni bu tariqa singdirish ularni inson nutqiy tizimini regulyasiya qilish bilan amalga oshirish mumkin bo'ladi. Kichik yoshli o'quvchilar tabiatni idrok etish va o'rganish mahali aynan makoniy tasavvurlar ularga atrof olam "tuzilishi"ni tushunishga, olamning tabiiy ilmlarga asoslangan qiyofasini model-obrazlar tizimi holida ko'z oldiga keltirishga imkon beradi. Bu mazkur tasavvurlar – "bu makoniy-zamoniy xossalar va munosabatlar haqidagi tasavvurlar: o'lchov kattaligi, shakl, ob'ektlarning nisbiy joylashuvi, ularning kirish va aylanma harakati haqidagi tasavvurlar" bo'lgani uchun imkoni bor.

Shuningdek, real voqelik haqidagi makoniy obrazning qay darajada umumlashgani va sxemaga solinganini farqlash zarur. Bu obraz bolada atrof olamning alohida jihatlarini ham, yaxlit holini ham bilish paytida shakllanadi. Mazkur obrazlarning qanchalik umumlashgani turli shart-sharoitlarga bog'liq: akslanuvchi ob'ektlarning makoniy xossalari xarakteri, bola faoliyatida darsdagi

vazifalar, o'quvchining tabiat ob'ektlari va hodisalarining makonyi xossalarini turli grafik modellar (rasm, sxema, kichikroq chizma, maxsus ramz ko'rinishida va boshqa) qayta tiklay olish mahorati.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Atrof olamni ham birlamchi ob'ektlarning, ham real ob'ektlar o'rtasidagi umumiy makoniy bog'liqliklarning turli grafik modellari ko'rinishida aks ettirish mahoratiga maktabgacha yoshdagi bolalarni ham, kichik yoshli o'quvchilarni ham maxsus o'qitish zarur. Bundan ko'zlangan maqsad tabiatni samaraliroq o'rgana va tasavvurlarni tafakkur, til va boshqa psixofiziologik jarayonlar vositasida qayta ishlash paytida tabiiy ilmlarga asoslangan fikrlash tarzini rivojlantira olsin. Bundan tashqari, fanda shu narsa isbotlanganki, makoniy tasavvurlarni yaxshi rivojlantirish va ularni singdirish mahorati shunday baza sanaladiki, u kichik yoshli o'quvchilarga real voqelikni tushunish va anglashda ijodiy faoliyatni amalga oshirishga imkon beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan taqqoslaganda kichik yoshli o'quvchilarning diqqati borgan sari ixtiyoriy bo'ladi, biroq boshlang'ich sinflarda g'ayriixtiyoriy diqqat ancha kuchli bo'lib qoladi. Tabiatni bilish chog'ida shuni hisobga olish zarurki, bevosita e'tiborni jalb qilgan ob'ekt yoki hodisa bola uchun g'oyat qiziq va ahamiyatli bo'lsagina boshlang'ich sinflar o'quvchilarida ixtiyoriy diqqat tez-tez namoyon bo'ladi. A.A. Smirnovning fikricha, kichik maktab yoshidagi bolalarning xotirasi etarlicha yaxshi sanaladi, ayniqsa mexanik, bunday xotira tahsil davomida doim rivojlanadi. Mantiqiy, vositalangan xotira esa sekinroq rivojlanadi, bunday turdagi xotira rivoji o'qish mobaynida maxsus mnemik masalalarni echishni va bolalarni mnemik amallar (yodlash operatsiyalarini egallash va ularni turli vaziyatlarda qo'llash)ga o'qitishni talab etadi. Xayol – shakllangan amaliy, tuyg'uli, intellektual va emotsional-ma'noviy tajriba mazmunini qayta ishlash yo'li bilan voqelikning yangi yaxlit obrazlarini qurishga doir universal insoniy qobiliyat o'laroq – kichik yoshli o'quvchilarda olamning tabiiy fan asosidagi qiyofasining shaxs uchun ahamiyatli obrazini shakllantirishda o'tib ketmas ahamiyatga ega. So'nggi vaqtlarda xayol psixologiyada ongning yalpi xossasi o'laroq ko'rib chiqila boshladi, shu bilan birga olam obrazini yaratish va

strukturalashda uning eng muhim funktsiya bajarishi qayd etiladi. Psixolog olimlar konkret jarayonlar (bilim olish, emotsional va boshqa)ning xayoliy talqini determinatsiyasini ham tadqiq etishmoqda. Bu “emotsional oldindan payqash” (A.V. Zaporozets); "produktiv idrok qilish" (V.P. Zinchenko) hodisalarida o‘z ifodasini topayapti. Kichik yoshli o‘quvchilar xayol yordamida tabiat ob‘ekti yoki hodisasi haqidagi tushuncha mazmunini, tushunchaning o‘zi shakllanishiga qadar, obrazli konstruksiyalashi isbotlangan. Shunigdek, o‘quvchilar xayolda tabiat haqidagi ushbu tushuncha bilan bog‘liq a‘lo darajadagi konkret sxema, tirkak, jadval yaratishgacha bo‘lgan xatti-harakatlar sxemasini yaratishi va ushlab qolishi mumkin.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Shunday qilib, xayol surish jarayonida boladagi bilim hali mantiqiy kategoriyaga ko‘chmasligi mumkin, biroq uning ongida yalpi va birlamchi bilimning sezgi darajasida nisbatlashuvi allaqachon sodir bo‘ladi. Bu nisbatlashuv tabiatning ob‘ektlari va hodisalari haqidagi ongga bot-bot kiruvchi obrazlarning o‘zaro ta’siri bois ham g‘ayriixtiyoriy va ham fikriy tahlil va sintez paytida ixtiyoriy faoliyat ta’siri ostida, obrazlarda ob‘ektlar va hodisalarning umumiy va xos xususiyatlarini ajratish bilan sodir bo‘ladi. Olimlarning fikricha, ( N.F. Vinogradova, B.V. Goryachev, E.V. Elenkov i dr.), xayolotni o‘stirishning samarador usullaridan biri o‘yin bo‘lib, u kichik yoshli o‘quvchining bilim olish-tahsil olishga doir faoliyatida muhim o‘rin egallashi kerak. Kichik yoshli o‘quvchilarning olam qiyofasini shakllanitirish jarayonida real va noreal olamning ajib obrazlarini yaratuvchi ijodiy xayolot katta ahamiyat kasb etadi. Bu obrazlar bolaning bilim olishga doir faoliyati natijalarini oldindan payqaydi, mavjud ko‘rgazmali materialni o‘zgartiradi, bola onggini dunyo haqidagi axborot bilan boyitadi yoki olamga boshqacha “nazar solish”ga undaydi. Bolalarning ijodkorlik faoliyati konstruksiyalash jarayonida, yangi ideal ob‘ektlar (mavjud va mavjud bo‘lmagan)ni anglashda ham rivojlanib boradi. Fanda real voqelik borasidagi barcha bilishga doir obrazlar tuyg‘uli-ko‘rgazmali va ratsional (tushunchaviy) obrazlarga bo‘linadi.

Tushunchaviy obrazlar atrof olamning tabiiy ilmlar asosidagi boshlang'ich qiyofasini yaratishda hal qiluvchi rol o'ynaydi, negaki ular chalkash shaklda ob'ektiv olamning sezgi a'zolari anglashga qodir bo'lmagan umumiy va muhim jihatlari, aloqalari va tomonlarini aks ettiradi. SHu bilan birga ratsional mazmundan butkul holi va aksincha bo'lgan biror bir tuyg'uli unsurlar mavjud emas. Hech bir obraz, xoh tuyg'uli, hox abstrakt bo'lsin, bolada uning tegishli xatti-harakati, amalisiz shakllanishi mumkin emas, shuning uchun tuyg'uli obraz sifatida idrok etishni idrok qilish amali natijasi sifatida ko'rish mumkin, tushunchani esa fikriy amallar mahsuli deb. Ushbu xatti-harakatlarni tahsil oluvchilar faqat yaxshi rivojlangan xayolot mavjud bo'lgandagina amalga oshirishi mumkin. SHu tariqa, bo'lg'usi fikr mazmuni xayolda yaxlit ob'ekt rivojining allaqanday muhim, etakchi tendensiyasi holida qayd etiladi, biroq bola mazkur yaxlitlikni faqat fikr yuritish orqali anglab etishi mumkin. Barcha psixik jarayonlar orasida tafakkur insoniyat taraqqiyoti bilan birgalikda murakkab evolitsiyani bosib o'tmoqda, yangi, ancha murakkab vazifalarni bajarishda doim tashkilotchi rolini bajarayapti. Tafakkur sub'ektning ob'ekt bilan, sub'ektning sub'ekt bilan o'zaro muloqoti jarayoni sifatida, sub'ektning voqelikda mo'ljal olishi etakchi shakli o'laroq maydonga chiqayapti.

**Takliflar(Recommendation)** Kichik yoshli bolalarda dunyoning tabiiy ilmlarga asoslangan qiyofasini shakllantirish jarayonida tafakkur qanday o'rin va xususiyat kasb etishini ko'rib chiqamiz. Falsafa tarixida tafakkur maxsus obrazda tuzilgan materiya – miyaning oliy mahsuli, ob'ektiv olamning tushunchalarda, mulohazalarda, nazariyalarda aks etishi faol jarayoni deya ta'riflanadi. Biroq tafakkur asl intellektual jarayon hisoblanmaydi, balki ongda tuyg'u, idrok, xayol, nutq va boshqa shu kabi jarayonlar bilan uzviy bog'liq. "Tafakkur aynan shuning uchun jarayonki, ob'ekt taqozo etgani holda tafakkurning har bir qadami ob'ektni yangicha ochib beradi, ushbu so'ngining o'zgarishi o'z navbatida tafakkurning yangi qadamini taqozo qilib qo'yadi, shunga zamin yaratadi; shu bois tafakkur muqarrar, zarur bo'lib jarayon kabi quloqch yoyib boradi. Ushbu fikrlardan kelib chiqib quyidagi takliflarni berishimiz mumkin;



- *Bola shaxsini individual rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olinib, atrof-olamni rivojlanishining umumiy qonunlarini va uni ilmiy bilish boshlang'ich sinf o'quvchilari tabiatini o'rganish jarayoni tarkib toptirish;*
- *boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiatini o'rganish tizimi quyidagi pedagogik qonuniyatlar asosida amalga oshiriladi: ma'no jihatidan aksiologik boyitish;*
- *tizimlilik; tabiiy-ilmiy va gumanitar mazmunda olamning manzarasining yagonaligiga erishish:*

**Xulosa (Conclusion).** Shunday qilib, kichik yoshli o'quvchilarning atrof olamni bilishi jarayoni ijtimoiy bilish bilan bog'liq, unga o'xshash, ammo tabiiyki, aynan mos emas. Tabiatni bilishning umumiy qonuniyatlari bilan bir qatorda Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun uni idrok etishning o'ziga xosliklari, diqqat, xayol, fikrlashning o'ziga xosliklari xarakterli, shaxsiyatga mo'ljallangan tahsil jarayonida olamning tabiiy ilmga asoslanib sub'ekti qiyofasini shakllantirishda buni hisobga olish zarur.

#### Adabiyotlar ro'yxati

1. *Е.Г. Новолодская “Методика преподавания предмета «Окружающий мир» в начальной школе” Учебно-методическое пособие 2016*  
2
2. *Суровикина С.А. Теоретико-методологические основы развития естественнонаучного мышления учащихся в процессе обучения физике //диссертация ... доктора педагогических наук: 13.00.02, Челябинск, 2006.*
3. *Шодиев Р.Д., Мухаммадиева М.М. Изучение окружающего мира учащимися начальных классов на основе гуманистической концепции развития личности.//Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. №2-3.2015.*
4. *А.Баҳромов. Ш. Шарипов, М.Набијева. Табиатшунослик. 4-сinf darsligi. “Sharq” nashriyoti. T*